



SUV TEJOVCHI GULTUVAK

A.A.Xojimatov, M.A.Abdimutalibjonova

Andijon Davlat Texnika Instituti

katta o'qituvchi, iqtidorli talaba

aziznido20@gmail.com

Аннотация Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda noan'anaviy va resurs tejankor texnologiyalardan foydalanishda suv tejoychi texnologialarning o'rni beqiyos. Ushbu maqolada gulchilik va ko'chatchilik sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash haqida so'z boradi.

Xozirgi vaqtga kelib eng ommalashib borayotgan sohalardan biri bo'lib, xar-bir tuman miqyosida gulchilik klasterlari va shirkatlari ish olib bormoqda. Bunda manzarali va xona gullarining maxalliy va xorijiy navlari yetishtirilib, xalqimiz e'tiboriga taqdim etib kelinmoqda. Import o'rnini bosuvchi turli qimmatbaho gul navlarini o'stirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu maqolada asosan gulchilik va ko'chatchilikni rivojiga katta hissa qoshadigan innovatsion gultuvakni ishlab chiqarishga tavsiya etish bo'yicha ilmiy yangiliklar keltirib o'tilgan.

Аннотация. Роль вод сберегающих технологий в развитии аграрного сектора, использующего нетрадиционные и ресурсосберегающие технологии, не имеет себе равных. В статье рассматривается использование современных технологий для развития цветоводства и питомниководства.

В настоящее время это одна из самых популярных отраслей, в каждом районе действуют кластеры и компании по цветоводству. В связи с этим выращиваются и представляются вниманию нашего народа местные и зарубежные сорта декоративных и комнатных цветов. Большое внимание уделяется также выращиванию различных ценных сортов цветов, способных заменить импорт.



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



В данной статье в основном представлены научные новости, посвященные рекомендациям по производству инновационных цветочных горшков, которые внесут значительный вклад в развитие цветоводства и садоводства.

Abstract. The role of water-saving technologies in the development of the agricultural sector using non-traditional and resource-saving technologies is unparalleled. The article discusses the use of modern technologies for the development of floriculture and nursery.

Currently, this is one of the most popular industries, in each region there are clusters and companies on floriculture. In this regard, local and foreign varieties of ornamental and indoor flowers are grown and presented to the attention of our people. Much attention is also paid to the cultivation of various valuable varieties of flowers that can replace imports.

This article mainly presents scientific news dedicated to recommendations for the production of innovative flower pots that will make a significant contribution to the development of floriculture and gardening.

Kalit soʻzlar: Gulchilik, klaster, koʻchatchilik, innovatsiya, gultuvak, sensor.

Ключевые слова: Цветоводство, кластер, рассадка, инновация, клумба, датчик.

Keywords: Floriculture, cluster, seedling, innovation, flowerbed, sensor.

Gulchilik hozirgi vaqtga kelib eng ommalashib borayotgan sohalardan biri boʻlib, xar-bir tuman miqyosida gulchilik klasterlari va shirkatlari ish olib bormoqda. Bunda manzarali va xona gullarining maxalliy va xorijiy navlari yetishtirilib, xalqimiz eʼtiboriga taqdim etib kelinmoqda. Import oʻrnini bosuvchi turli qimmatbaho gul navlarini oʻstirishga ham katta eʼtibor qaratilmoqda.

Jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi PQ-5209-sonli “Respublika hududlarida gulchilik va koʻchatchilik sohasini yanada rivojlantirish toʻgʻrisida”gi qarorni imzoladi [1]. Qarorga muvofiq: tadbirkorlik subʼektlarini gulchilik va koʻchatchilik bilan shugʻullanishga qiziqtirish, ularni bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi uchun oʻqitish, shu jumladan xorijiy davlatlarda oʻqitish, shuningdek, bu jarayonga xorijiy mamlakatlardan malakali mutaxassislarni jalb qilish;



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Gul yetishtiruvchilar uyushmasi bilan birgalikda uch oy muddatda gulchilikka ixtisoslashgan tumanlarda tajriba tariqasida gulchilik sohasida tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar tomonidan gulchilik klasterlari tashkil qilinishini ta'minlash vazifalari yuklatildi.

“Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida ajratilgan mablag'larning kamida 10 foizi gulchilik loyihalarini tashkil qilish uchun ajratilishi ham qarorda belgilab o'tilgan. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga ochiq maydonda hamda issiqxonalarda gul yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlarni o'rgatish maqsadida Andijon, Jizzax va Namangan viloyatlarida har birining maydoni 2 sotix bo'lgan 25 ta “Gulchilik o'quv poligon”larini tashkil etish uchun 0,5 gektar yer maydoni ijaraga beriladi; “Gulchilik o'quv poligon”larida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va maxsus sertifikat olgan ishsiz, ehtiyojmand oilalarga gul va ko'chat yetishtirishni rivojlantirish orqali ularga maxsus yer maydonlarini ijaraga berilishi aytib o'tilgan.

Shu bilan birga 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2021 — 2024 yillarda yillik eksport tushumida gul eksportidan tushum ulushi kamida 30 foizni va 100 ming AQSH dollaridan ko'pni tashkil qiladigan tadbirkorlik sub'ektlarining xom ashyo (gul ko'chatlari, urug'lari, piyozlari va payvandtaglari) importi uchun sarflangan transport xarajatlarining 50 foizi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplanadi.

2023 yil 1 yanvarga qadar tuganaklar, piyozboshlar, tuganaksimon ildizlar, tuganak piyozlar, ildizpoya, jumladan vegetativ tinim holatidagi, vegetatsiya yoki gullash davridagi sertarmoqlari, boshqa tirik o'simliklar (jumladan, ildizlari), qalamchalar va parxishi (TIF TN kodi 0601 va 0602) importida bojxona bojining nol stavkasi qo'llanilishi belgilandi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi ikki oy muddatda ilmiy-texnik dasturlar doirasida gulchilik va ko'chatchilik sohalarida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarining ko'lamini kengaytirishga, aniq natija beradigan loyihalarga davlat buyurtmasini shakllantirib, raqobat asosida moliyalashtirishga tanlov e'lon qilishi belgilangan. Bunda, ilmiy loyihalarga ajratiladigan mablag'larning kamida 40 foizi eksportbop va qimmat gullarni (orxideya, liliya, pion va boshqalar) mahalliy



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



iqlimga moslashtirish uchun gen injeneriyasiga ixtisoslashgan ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish hamda jihozlashga yo‘naltirish ko‘rsatib o‘tilgan.

Gulchilik sohasiga oid loyihalarni moliyalashtirish ustuvor ravishda “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan, shuningdek, “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida esa barcha tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarni bajarish maqsadida gulchilik sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda xona gullari va ko‘chatlar uchun ishlatiladigan tuvaklarni o‘rganildi.

Xozirgi vaqda gul tuvaklarining bir necha turlari bo‘lib, Jumladan materiali, shakli(dizayni), namlash (sug‘orish) usuliga qarab ajratish mumkin.



Ushbu gul tuvaklar gul o‘shish parametrlari, shakli, tomirlar kengayishi, namlikni va quyosh nurini talab qilish darajasi, xonaning dizayniga mos kelishi, qolaversa narxiga qarab tanlab olinadi.

Xar bir gul o‘zi uchun qulay sharoit yaratilgandagina ma’lum davr davomida o‘z go‘zalligini va chiroyini saqlab turadi. Aks holda uning o‘suv davri tugallanib, xar-hil



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya




kassalliklar, tomirlar chirishi, yorug'lik va issiqlikning yetishmasligi, tuproqdagi mineral va organik moddalar kamligi va bir qator boshqa sabablarga ko'ra yo'qolib boradi. Aksariyati gullar va ko'chatlarni namlik darajasini aniqlash murakkab chunki buni faqat gul yetishtiruvchi haqiqiy gulchilargina farqlay olishi mumkin [2,3].

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra gul tuvaklarini sodda variantlari keng qo'llanilib, ma'lum shakl ostida teshiklari bo'lgan plastmassa, loy tuproqli ko'za, shisha, yog'och g'o'lali va mramor toshli turlari mavjud. Ushbu gul tuvaklari o'simlik o'sishida faqat tuproqni qamrab olish va o'simlik o'sishi uchun oddiy sharoit yaratadi. Bu holatda tuproq namligini baholab borish va kerakli namlikni hosil qilish maxsus gulchi xizmatidan foydalanishni talab etadi. Xona gullari va ko'chatlarini turiga ko'ra hamma gullar va ko'chatlar har-xil namlikda o'sadi. Buni har doim ham nazorat qilish imkoni bo'lmaydi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishida ushbu kamchiliklar o'rganilib, ilmiy yechim taklif etilgan. Jumladan namlikni boshqarish, suv iste'molini avtomatik boshqarish, gulchi xizmatini kamaytirish, gul va ko'chatlarni nobud bo'lishini oldini olish vazifalari ko'rsatib o'tilgan [4].

Inovatsion gul tuvak boshqa tuvaklardan farqi shundaki, u maxsus suv qobig'li tuvak bo'lib, plastik materialdan maxsus dizayn bilan ishlangan. Bunda tuproq namligini o'lchash uchun sensorli datchik mavjud bo'lib, tuvakka o'rnatilgan mini nasos qo'rilmisiga axborot yetkazib turadi. Berilgan axborotga ko'ra nasos qurilmasi gul tuvak qobig'idagi suvni tuproq qatlamiga tomchilatib yetkazib beradi. Natijada tuproq kerakli me'rdagi namlikka yetganda mini nasos o'z ishini to'xtatadi. Mini nasos qurilmasida maxsus batareya mavjud bo'lib, qo'yosh paneli orqali doimiy quvvatlantirilib boriladi.





**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Innovatsion gul tuvakning afzalligi avvalgi oddiy tuvaklardan ko‘ra qo‘yidagicha farq qiladi:

- ✓ maxsus dizaynga ega;
- ✓ suv bo‘linmasi mavjud;
- ✓ avtomatik namlikni nazorat qilish imkoni mavjud;
- ✓ sug‘orish ishlarini avtomatik bajaradi;
- ✓ quyosh nuridan quvvat oladi.

Xozirgi kunda gulchilikni rivojlantirishda bir qator imkoniyatlar mavjud bo‘lib, sohani rivojlantirishda davlat miqyosida keng e‘tibor berilib borilmoqda. Turli zamonaviy landshaft gullari yetishtirilib, turli korxonalar va davlat muassasalarining landshaft dinaynini yaratishga xissa qo‘shmoqda. Bu esa o‘z navbatida gul va ko‘chatlarga jiddiy e‘tibor qaratishni talab etadi. Shuning uchun ushbu taklif etilayotgan innovatsion gul tuvaklari sohani bir qator muammolarini hal qilishda yechim bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi PQ-5209-sonli “Respublika hududlarida gulchilik va ko‘chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorni <https://lex.uz/docs/5552394>
2. Khojimatov A.A. Organize a cluster system in uzbekistan agriculture comparison with world experience. – 2022.
3. Xojimatov A.A., Oripov G. Qishloq xo‘jaligi klaster tizimlarida ishlatiladigan uskunalarning metall qismlarini agressiv muhitdan himoya qilish // Ученый XXII века. 2020. №12-1(71). <https://cyberleninka.ru/article/n/qishloq-xojaligi-klaster-tizimlarida-ishlatiladigan-uskunalarning-metall-qismlarini-agressiv-muhitdan-himoya-qilish> (data obraceniya: 10.01.2023).
4. Xojimatov A.A., Eshonxujaev D. O. Fiziko-mexanicheskiye osnovy protsessa iznashivaniya elementov selskoxozyaystvennykh mashin v korrozionno-aktivnykh sredax // Nauka i mir. – 2019. T. 1. – №.6. – S. 64-65.